

O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM XIZMATLARI EKSPORTINING DINAMIKASI VA GEOGRAFIK BOZOR TARKIBI: STATISTIK-TAHLILIY TADQIQOT

Mamatqulova Busara Muxtarovna

Oriental universiteti, Menejment (Ta'lim menejmenti) yo'nalishi magistranti

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda oliy ta'lim xizmatlari eksportining amaldagi holati va rivojlanish dinamikasi rasmiy statistik ma'lumotlar hamda mualliflik hisob-kitoblari asosida miqdoriy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda dinamik qatorlar tahlili, o'rtacha yillik o'sish sur'ati (CAGR) va Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI) usullaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, 2015/16–2024/25-o'quv yillarida xorijiy talabalar soni 0,7 ming nafardan 12,5 ming nafarga (qariyb 18 barobar; $CAGR \approx 37,6\%$) o'sgan, ammo ularning jami kontingentdagi ulushi 1 foizdan pastligicha qolmoqda. Eksport bozori past-o'rtacha darajada konsentratsiyalashgan ($HHI \approx 0,126$) bo'lib, asosan Janubiy va Markaziy Osiyo mamlakatlariga bog'liq. Tadqiqot mavjud salohiyat bilan undan foydalanish darajasi o'rtasidagi sezilarli tafovutni empirik jihatdan asoslaydi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim eksporti, xorijiy talabalar, ta'lim xizmatlari, CAGR, Herfindahl–Hirschman indeksi, bozor diversifikatsiyasi, O'zbekiston.

1. Kirish

Oliy ta'lim xizmatlari eksporti zamonaviy jahon xo'jaligida bilimga asoslangan iqtisodiyotning eng dinamik segmentlaridan biriga aylandi. Xorijiy talabalarni jalb etish mamlakat uchun nafaqat bevosita valyuta tushumi, balki inson kapitali, xalqaro nufuz va “yumshoq kuch” manbai hamdir. Xomashyo eksportidan farqli o'laroq, ta'lim eksporti barqaror, ijobiy qo'shilgan qiymatga ega va tashqi konyunktura tebranishlariga chidamliroq hisoblanadi.

Bitta xorijiy talaba yaratadigan yalpi iqtisodiy samara uning o'quv to'lovidan bir necha barobar yuqori baholanadi, chunki talaba yashash, oziq-ovqat, transport, aloqa va turistik xizmatlarga muntazam mablag' sarflab, qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiyotiga multiplikativ ta'sir ko'rsatadi. Aynan shu bois Avstraliya, Buyuk Britaniya, Kanada, Malayziya va Birlashgan Arab Amirliklari kabi davlatlarda ta'lim eksporti alohida sanoat tarmog'i sifatida davlat darajasida qo'llab-quvvatlanadi.

O'zbekiston geografik joylashuvi, Markaziy va Janubiy Osiyo bilan tarixiy-madaniy yaqinligi, nisbatan qulay narx darajasi hamda so'nggi yillardagi keng ko'lamli islohotlar tufayli mintaqaviy ta'lim markaziga aylanish uchun real imkoniyatlarga ega. Biroq bu imkoniyatlardan qay darajada foydalanilayotganini faqat obyektiv statistik ko'rsatkichlar dinamikasi orqali baholash mumkin.

Mazkur maqolaning maqsadi — O'zbekistonda oliy ta'lim xizmatlari eksportining miqdoriy dinamikasi va geografik bozor tarkibini rasmiy statistika hamda mualliflik hisob-

kitoblari asosida har tomonlama yoritish, uning rivojlanish tendensiyalari va tarkibiy xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot quyidagi savollarga javob izlaydi: (1) milliy oliy ta'lim tizimi qanday sur'atda kengaymoqda; (2) xorijiy talabalar segmenti qanday dinamikaga ega; (3) eksport bozori geografik jihatdan qanchalik diversifikatsiyalashgan.

2. Materiallar va metodlar

Tadqiqotning empirik bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining oliy ta'lim bo'yicha press-relizlari (2021–2025), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining yil yakuni hisobotlari hamda universitetlarning rasmiy ma'lumotlari tashkil etadi. Ma'lumotlar ikkilamchi (rasmiy statistik) xususiyatga ega bo'lib, dinamik qatorlar shaklida tizimlashtirildi.

Tahlilda uchta asosiy kvantitativ usuldan foydalanildi. **Birinchidan**, dinamik qatorlar tahlili orqali bazis va zanjirli o'sish sur'atlari hisoblandi. **Ikkinchidan**, uzoq muddatli o'sish tendensiyasini baholash uchun o'rtacha yillik o'sish sur'ati (CAGR) qo'llanildi: $CAGR = [(V_t / V_0)^{(1/n)} - 1] \times 100$. **Uchinchidan**, eksport bozorining geografik konsentratsiyasi Herfindahl–Hirschman indeksi ($HHI = \sum p_i^2$) va undan hosila diversifikatsiya koeffitsiyenti ($DK = 1 - HHI$) yordamida o'lchandi.

Ulushlar, o'sish sur'atlari va indekslar muallif tomonidan hisoblab chiqildi. Metodologik cheklov sifatida shuni qayd etish lozimki, ayrim ko'rsatkichlar o'quv yili boshiga, boshqalari esa yil yakuniga oid hisobotlardan olingani bois ular bevosita emas, balki umumiy tendensiyaning ifodalash uchun birgalikda talqin qilinadi.

3. Natijalar

3.1. Oliy ta'lim tizimining umumiy kengayishi


Ta'lim eksporti salohiyatini baholashdan avval milliy tizimning umumiy ko'lamini tahlil qilish maqsadga muvofiq, chunki aynan tizimning kengayishi xorijiy talabalarni qabul qilish uchun zarur akademik va infratuzilmaviy bazani shakllantiradi. So'nggi besh o'quv yilida jami talabalar soni 808,4 ming nafardan 1 535,0 ming nafarga yetdi, ya'ni 89,9 foizga oshdi. Oliy ta'lim tashkilotlari soni 154 tadan 2024/25-yilda 222 taga ko'tarilib, so'ng 2025/26-yilda 215 taga optimallashtirildi.

1-jadval. O'zbekiston oliy ta'lim tizimining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2021/22–2025/26)

Ko'rsatkich	2021/22	2022/23	2023/24	2024/25	2025/26	O'sish, %
OTMLar soni, ta	154	191	219	222	215	+39,6
Jami talabalar, ming nafar	808,4	1042,1	1314,5	1432,8	1535,0	+89,9

Ko'rsatkich	2021/22	2022/23	2023/24	2024/25	2025/26	O'sish, %
Qabul qilinganlar, ming nafar	235,9	282,4	365,2	381,7	409,7	+73,7
Professor-o'qituvchilar, ming nafar	37,4	41,7	45,2	49,6	54,9	+46,8

Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi; o'sish sur'atlari — muallif hisob-kitobi. **URL:** https://stat.uz/img/news/olij-talim-lotin_p44563.pdf



1-rasm. Oliy ta'lim tizimining kengayish dinamikasi

Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi. **URL:** <https://stat.uz>

Natijalar tizimning kengayishi bir vaqtning o'zida ham ekstensiv (talabalar va OTMlar sonining o'sishi), ham institutsional (mulkchilik shakllari diversifikatsiyasi) xarakterga ega bo'lganini ko'rsatadi. 2025/26-yilda OTMlar sonining 7 taga qisqarishi tizim miqdoriy o'sishdan sifatni optimallashtirish bosqichiga o'tayotganidan dalolat beradi.

3.2. Xorijiy talabalar sonining dinamikasi

Ta'lim eksportining markaziy ko'rsatkichi — bevosita milliy OTMlarda tahsil olayotgan xorijiy talabalar sonidir. Bu ko'rsatkich 2015/16-o'quv yilidagi atigi 0,7 ming nafardan 2024/25-o'quv yilida 12,5 ming nafarga yetib, o'n yil ichida qariyb 18 barobar oshdi; vazirlikning 2025-yil yakuni hisobotida esa ko'rsatkich 20 ming nafardan oshgani qayd etildi.

2-jadval. Xorijiy talabalar soni, yillik o'sish sur'ati va ulushi (2015/16–2024/25)

O'quv yili	Xorijiy talabalar, nafar	Yillik o'sish sur'ati, %	Jami tarkibdagi ulushi, %
2015/16	0,7	—	—
2016/17	0,6	−14,3	—
2017/18	1,3	+116,7	—
2018/19	2,7	+107,7	—
2019/20	3,6	+33,3	—
2020/21	4,2	+16,7	—
2021/22	5,1	+21,4	0,63
2022/23	5,0	−2,0	0,48
2023/24	10,8	+116,0	0,82
2024/25	12,5	+15,7	0,87

Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi; ulush va o'sish sur'atlari — muallif hisob-kitobi. **URL:** <https://stat.uz>

Xorijiy talabalar sonining dinamikasi (CAGR ≈ 37,6 %)



2-rasm. Xorijiy talabalar sonining bosqichli dinamikasi

Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi. **URL:** <https://www.xabar.uz>

Dinamik qator uch bosqichni ochib beradi. Birinchi bosqichda (2015–2019) past bazadan yuqori sur'atli o'sish kuzatildi — 2017/18-yilda ko'rsatkich bir yilda 116,7 foizga oshdi. Ikkinchi bosqichda (2020–2022) COVID-19 pandemiyasi ta'sirida o'sish sekinlashib, 2022/23-yilda 2 foizlik qisqarish yuz berdi. Uchinchi bosqichda (2023-yildan) ko'rsatkich

keskin sakrab, bir yilda 116 foizga (5,0 mingdan 10,8 mingga) o'sdi. O'rtacha yillik o'sish sur'ati esa $CAGR = [(12,5 / 0,7)^{(1/9)} - 1] \times 100 \approx 37,6 \%$ ni tashkil etadi, bu jahon miqyosida juda yuqori sur'atdir.

3.3. Eksport bozorining geografik tarkibi va konsentratsiyasi

Eksport bozorining barqarorligi ko'p jihatdan uning geografik diversifikatsiyasiga bog'liq. 2022/23-o'quv yilida ro'yxatdan o'tgan 4 956 nafar xorijiy talabani mamlakatlar bo'yicha taqsimoti eng ishonchli asos hisoblanadi, chunki u jamlangan (uzoq muddatli) kontingentga tegishli.

3-jadval. Xorijiy talabalarning mamlakatlar bo'yicha tarkibi va konsentratsiya bahosi (2022/23)

Mamlakat	Talabalar soni, nafar	Ulushi, %	Ulush kvadrati (HHI uchun)
Pokiston	985	19,9	0,0396
Turkmaniston	787	15,9	0,0253
Hindiston	728	14,7	0,0216
Rossiya	648	13,1	0,0172
Qozog'iston	483	9,7	0,0094
Tojikiston	269	5,4	0,0029
Qirg'iziston	263	5,3	0,0028
Afg'oniston	249	5,0	0,0025
Xitoy	162	3,3	0,0011
Janubiy Koreya	140	2,8	0,0008
Boshqa (Turkiya va b.)	242	4,9	0,0027
Jami	4 956	100,0	HHI ≈ 0,1259

Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi; ulush va HHI — muallif hisob-kitobi. **URL:** https://stat.uz/images/uploads/reliz-2023/2022-olij-talim-uzb29_05_2023.pdf



3-rasm. Xorijiy talabalarining mamlakatlar bo'yicha ulushi

Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi. **URL:** <https://stat.uz>

Yetakchi beshta davlat — Pokiston (19,9 %), Turkmaniston (15,9 %), Hindiston (14,7 %), Rossiya (13,1 %) va Qozog'iston (9,7 %) — umumiy kontingentning 73,3 foizini qamrab oladi. Herfindahl–Hirschman indeksi $HHI \approx 0,1259$, diversifikatsiya koeffitsiyenti esa $DK = 1 - HHI \approx 0,874$ ga teng. Indeksning teskari qiymati ($1 / HHI \approx 7,9$) “samarali mamlakatlar soni” taxminan sakkiztaga tengligini bildiradi — bu past-o'rtacha darajadagi konsentratsiyani anglatadi.

3.4. Yangi qabul geografiyasi

Eksport “pipeline”ini baholashda yangi qabul tarkibi muhim. 2022/23-o'quv yilida qabul qilingan 1 975 nafar xorijiy talaba orasida Pokiston (27,1 %) va Hindiston (17,1 %) yetakchilik qildi — ikkisi birgalikda yangi qabulning 44,2 foizini tashkil etib, tibbiyot yo'nalishlariga Janubiy Osiyo talabining kuchayib borayotganini tasdiqladi.

4-jadval. 2022/23-o'quv yilida qabul qilingan xorijiy talabalarining mamlakatlar bo'yicha tarkibi

Mamlakat	Qabul nafar	qilinganlar, %
Pokiston	536	27,1
Hindiston	337	17,1
Rossiya	260	13,2
Qozog'iston	178	9,0
Qirg'iziston	139	7,0

Mamlakat	Qabul qilinganlar, nafar	Jami qabuldagi ulushi, %
Tojikiston	135	6,8
Boshqa davlatlar	390	19,8
Jami	1 975	100,0

Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi; ulushlar — muallif hisob-kitobi. **URL:** https://stat.uz/images/uploads/reliz-2023/2022-olij-talim-uzb29_05_2023.pdf

4. Muhokama

Olingan natijalar O'zbekiston oliy ta'lim eksporti bo'yicha bir qator muhim qonuniyatlarni ochib beradi. Avvalo, milliy tizimning jadal kengayishi (talabalar soni +89,9 %) xorijiy talabalarni qabul qilish uchun zaruriy “kengaytirilgan quvvat” yaratdi, ammo bu o'sishning asosiy qismi ichki talabga to'g'ri keldi. Demak, tizim salohiyati oshgan bo'lsa-da, uni eksportga yo'naltirish alohida, maqsadli sa'y-harakatlarni talab etadi.

Ikkinchidan, xorijiy talabalar segmentining o'rtacha yiliga 37–38 foizga o'sishi (CAGR $\approx$ 37,6 %) juda yuqori sur'at bo'lsa-da, uni ehtiyotkorlik bilan talqin qilish lozim: o'sish past boshlang'ich bazadan kelib chiqqan va absolyut qiymatlar hali kichik. 2023-yildagi keskin sakrash pandemiyadan keyingi tiklanish va mintaqadagi geosiyosiy o'zgarishlar natijasida talabalar oqimining qayta taqsimlanishi bilan izohlanadi; hududiy yaqinlik, madaniy-lisoiy umumiylik va nisbatan arzon narx bu qayta taqsimlanishda O'zbekiston foydasiga ishladi.

Uchinchidan, HHI $\approx$ 0,126 qiymati bozorning past-o'rtacha darajada konsentratsiyalashganini bildiradi: hech bir mamlakat 20 foizdan ortiq ulushga ega emas va o'nga yaqin davlat sezilarli hissa qo'shadi. Bu nisbatan ijobiy holat bo'lsa-da, oqimning asosan mintaq va Janubiy Osiyo bilan cheklanishi Yevropa, Yaqin Sharq va Afrika bozorlaridan hali to'liq foydalanilmaganini ko'rsatadi — bu esa geosiyosiy tebranishlarga nisbatan potensial zaiflik yaratadi.

Tadqiqotning metodologik cheklovi shundaki, jamlangan kontingent geografiyasi (Pokiston, Turkmaniston, Hindiston yetakchiligi) ta'lim maqsadidagi chegaraviy oqim geografiyasidan farq qiladi. Shu bois tahlil bevosita ro'yxatdagi kontingentga tayanadi, bu esa uzoq muddatli, diplom oluvchi talabalar tarkibini aniqroq aks ettiradi.

5. Xulosa

O'tkazilgan statistik-tahliliy tadqiqot asosida quyidagi aniq ilmiy xulosalar shakllantirildi:

Birinchidan, O'zbekiston oliy ta'lim tizimi 2021/22–2025/26 yillarda jadal kengaydi (talabalar soni +89,9 %, qabul +73,7 %), bu xorijiy talabalarni qabul qilish uchun zaruriy akademik va infratuzilmaviy bazani yaratdi.

Ikkinchidan, xorijiy talabalar soni o'n yilda 0,7 ming nafardan 12,5 ming nafarga ($\approx$ 18 barobar; CAGR $\approx$ 37,6 %) o'sdi, biroq bu o'sish past bazadan boshlangani inobatga olinishi kerak.

Uchinchidan, xorijiy talabalar ulushi 2024/25-yilda atigi 0,87 foizni tashkil etib, real salohiyatdan sezilarli past bo'lib qolmoqda — bu foydalanilmagan imkoniyatning kattaligini bildiradi.

To'rtinchidan, eksport bozori past-o'rtacha darajada diversifikatsiyalashgan ($HHI \approx 0,126$; samarali mamlakatlar soni ≈ 8), ammo mintaq va Janubiy Osiyoga bog'liqligi tarkibiy zaiflik hisoblanadi.

Umumiy xulosa shuki, O'zbekiston oliy ta'lim eksporti barqaror o'sish bosqichida bo'lib, real salohiyatga ega, biroq mavjud salohiyat bilan undan foydalanish darajasi o'rtasida sezilarli tafovut mavjud. Bu tafovutni bartaraf etish uchun bozorni geografik diversifikatsiyalash, ingliz tilidagi dasturlarni kengaytirish va eksport tushumini alohida hisobga oluvchi statistik monitoring tizimini joriy etish talab etiladi. Aniqlangan raqamli tendensiyalar keyingi tadqiqotlarda ishlab chiqiladigan maqsadli marketing strategiyalari uchun empirik asos vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

de Wit, H., & Altbach, P. G. (2021). Internationalization in higher education: Global trends and recommendations for its future. *Policy Reviews in Higher Education*, 5(1), 28–46.

Hirschman, A. O. (1964). The paternity of an index. *The American Economic Review*, 54(5), 761–762.

Milliy statistika qo'mitasi. (2023). O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tashkilotlari, 2022/2023-o'quv yili [Press-reliz]. Toshkent. https://stat.uz/images/uploads/reliz-2023/2022-olij-talim-uzb29_05_2023.pdf

Milliy statistika qo'mitasi. (2025). O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim. 2025/2026-o'quv yili [Press-reliz]. Toshkent. https://stat.uz/img/news/olij-talim-lotin_p44563.pdf

OECD. (2024). Education at a glance 2024: OECD indicators. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/c00cad36-en>

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. (2025). 2025-yil yakunlari bo'yicha hisobot. Toshkent. <https://gov.uz/oz/edu/news/view/112657>

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). To'lov balansi va xizmatlar eksporti bo'yicha hisobotlar, 2024–2025. <https://cbu.uz/en/publications/balance-of-payments/>

UNESCO Institute for Statistics. (2024). Global flow of tertiary-level students. UIS. <https://uis.unesco.org/en/uis-student-flow>

Xabar.uz. (2025, 26-aprel). O'zbekistonda tahsil olayotgan xorijlik talabalar soni. <https://www.xabar.uz/uz/talim/ozbekistonda-tahsil-olayotgan-xorijlik-talabalar-so>

Rakhimov, M., & Yusupova, D. (2023). Export of educational services as a factor of economic growth in Central Asia. *Journal of International Education and Development*, 11(2), 45–62.